

**CHO'LLANISHGA QARSHI KURASHISHDA ISROIL VA XITOY TAJRIBASINI
QO'LLASH**

Sobirova Shaxrizoda Shamsiddin qizi

+998973050744

Muhammadiyeva Aziza Asadulla qizi

+998972774577

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik" fakulteti 3-kurs talabalarini

Annotatsiya: Mazkur maqolada cho'llanishga qarshi Isroil va Xitoy davlatlari tajribasini qo'llash va uning natijasida kelib chiqadigan sabab va oqibatlar o'rganib chiqildi. Cho'llanishga qarshi Xitoy va Isroil tajribasini qo'llash bugungi kunda ijobjiy tomonlari tahlil qilinib yoritildi. Bugungi kunda cho'llanish muammosi butun dunyo davlatlarini xavotirga solmoqda. Ushbu masalani bartaraf etish hamjamiyatning asosiy diqqat markazidagi mavzuga aylanib ulgurdi deya olamiz. Cho'llanishdan kelib chiqadigan zararlar butun insoniyat hayotiga xavf solib, kishilarning yashash sharoitiga putur yetkazmoqda. Ushbu oqibatlarni bartaraf etish, muammoga yechim topish maqsadida o'z fikrimizni va kerakli tavsiyalarni berib o'tdik. Maqolada Isroil va Xitoy tajribasidan foydalanish orqali davlatlarning iqtisodi qanday rivojlanganligi, ularga sabab bo'luvchi omillarni birma-bir ochib berishga harakat qilindi. Shuningdek, dunyodagi mutaxassis olimlar va tadqiqotchilarining fikrlari, ushbu sohadagi ilmiy ishlar, maqolalar, gazeta va jurnallardagi ma'lumotlar o'rganib chiqilib ularga tegishli havolalar berilgan holda keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: cho'llanish, qurg'oqchilik, Isroil tajribasi Xitoy tajribasi, konvensiya, eroziya

Barchamizga ma'lumki, hozirda dunyoda yerlar sekundlar ichida cho'lga aylanib bormoqda. Ushbu holat barchani cho'llanish haqida chuqr o'ylashga majbur qilmoqda. Bugungi kunda bir soniyada 23 hektar hudud cho'llanib boryapti. Bu holat davom etadigan bo'lsa, 2050 yilga borib Yer yuzining deyarli 90 foizidan ko'prog'i cho'llanishga yuz tutadi va bu jarayon 3 milliarddan ortiq odamni oziq-ovqat tanqisligiga yuz tutishiga sabab bo'lishi mumkin. O'tgan asrdan boshlab global ekologik muammolar qatoriga cho'llanish ham qo'shildi va avvalgi muammolarga yechim emas balki yana bir yangi global muammo paydo bo'lgani achinarli holatdir. Xo'sh shu o'rinda bir necha savollar tug'iladi. Cho'llanish nima va buning natijasidan

kelib chiqadigan oqibatlar qanday? Kelajakda insoniyatni nima kutmoqda? Cho'llanishga qarshi kurashish natija beryaptimi?

Cho'llanish yuz berayotgan mamlakatlarda ekosistema buziladi, organik hayotning barcha shakllari yomonlashadi. bu esa dunyoda tabiiy inqirozga sabab bo'ladi.

Cho'llanish yerning ekin ekib bo'lmaydigan yaroqsiz ahvolga kelib qolishidir. Cho'llanish asosan qurg'oqchil iqlimli o'ikalarda ko'p uchraydi. Cho'llanish aholi yashash tarzini yomonlashuviga , kambag'allashuviga sabab bo'ladi. Asosiy daromadi dehqonchilik hisoblangan oilalarning qashshoqlikka yuz tutishi yuz beradi. Va hozir shu bilan kun kechirayotgan 3 milliardga yaqin odam yaqin kelajakda oziz ovqat tanqisligidan jabr ko'rishiga sabab bo'lishi mumkin .

Xo'sh Cho'llanishga nima sabab boladi?

Cho'llanishga insoniyatning yerdan noto'g'ri foydalanishi, yerlarning ifloslanishi va turli xil minerallarni qazib olish sabab bolishi mumkin. biz faqat insoniyat sabab bo'lishini ko'rsatib o'tdik. Cho'llanish tabiiy sabablar tufayli ham yuzaga kelmoqda .Aholi ko'payishi oziq-ovqatga talabni ham oshirmoqda . Odamlar ko'paygani sari yerdan ko'proq hosil olishga zarurat tug'iladi va natijada yer maydonlaridan me'yordan ortiq va ayovsiz foydalaniladi hamda natijada ular yaroqsiz holga keladi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, cho'llanishga sabab bo'layotgan inson bilan bog'liq omillar antropogen omillar deb ataladi va bundan boshqa barcha omillar tabiiy omillar hisoblanadi.

Endilikda oldimizda turgan asosiy muammo cho'llanishga qarshi qanday tadbirlar tajribadan o'tkazilyapti va ularning natijalari qanday? Degan savolga javob topishdir.

Cho'llanishga qarshi bugungi kunda keng sinovdan o'tkazilayotgan usul bu Xitoy va Isroilni tajribalaridir. Nega aynan Xitoy va Isroi? Chunki ushbu davlatlar tomonidan amalga oshirilgan tajribalar o'z ijobjiy natijalarini ko'rsatgan va hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab keng foydalanilmoqda. Eng avvalo Xitoy tajribasiga batafsil toxtalib o'tamiz. Xitoy cho'llanishga qarshi bir nechta samarali usullardan foydalangan. Biz ushbu usullarni o'rganib chiqib, ularning eng ko'p ijobjiy natija bergen 2 tasini kengroq yoritib beramiz. Demak Xitoy cho'llanishga qarshi qo'llagan dastlabki usul bu shaxmat taxtasi shaklida yerlarni bo'lib ularga bug'doy ekishdir. XIX asrning 70 yillarda Xitoyda katta qurg'oqchilik kuzatiladi. Va buning natijasida qishloq xo'jaligi inqirozga yuz tutadi. Ayniqsa , asosiy daromadi dehqonchilik hisoblangan provinsiyalarda qurg'oqchilikning kuchi sezilarli bilinadi. qurg'oqchilikning avjiga chiqqan davri 1977-yillga to'g'ri keladi. Bu paytda

atigi 25 ta oila istiqomat qiladigan Xitoyning Anxuy provinsiyasi butunlay qashshoqlikka yuz tutadi. Asosiy daromadi ekinlardan bo'lgan aholining yaroqli yerlarining barchasi zararlanadi. O'simliklar asta-sekin umuman hosil bermaydi . Shunda ushbu provinsiya jamoa faollari hukumatga biror chora ko'rishni sòrab murojaat qilishadi. Vaziyatga jiddiy yondashish kerakligini aks holda qurg'oqchilik cho'llanishni kengaytirib mamlakat iqtisodi yanada tanazzulga yuz tutishini tushungan Xitoy hukumati yangi bir usul ixtiro qiladi.Bu usul shunda iborat ediki, ya'ni Anxuy provinsiyasidagi har bir oilaga yerlar shaxmat taxtasi shaklida bo'lib beriladi va ularga bug'doy ekishga buyruq beriladi. yerlarni shaxmat taxtasi shaklida taqsimlashdan maqsad Gobi sahrosidan kelayotgan qum boronlarini kamaytirish orqali cho'llanishga barham berishdan iborat. Ya'ni yerlarning har bir qismi orasidagi shamol qumlarmi nazorat qiladi va shu orqali samaradorlikka erishiladi hamda Xitoy 1977 yil Nayrobida bo'lib o'tgan cho'llanish bo'yicha BMT konferentsiyasida Anxuyda qo'llanilgan cho'llanishga qarshi texnikasini ommaga namoyish qiladi⁶¹. ushbu usullarni eng birinchi bo'lib AQSh va Yaponiya davlatlari òzining cho'llanish yuqori bo'lgan hududlarida sinovdan o'tkazadilar.

Cho'llanishga qarshi Xitoy qo'llagan ikkinchi usul bu Shimoli-g'arbiy Xitoy hududi va Shinjon Uyg'ur avtonom Respublikasi òrtasidagi chegara hududda avtomobil yòlida "cho'l qo'riqchisi " deya tanilgan Haloxlon ammodendron nomli o'simlik ekiladi. Ushbu o'simlik shamoldan himoya qiluvchi va qumlarni mustahkamlovchi òsimlik hisoblanadi. Ushbu tajribasi orqali Xitoy 2021 yilgacha 6.7 million gektardan ortiq yerni cho'llanishdan saqlab qolgan. Bu ma'lumotlar 2021- 17-iyun Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni arafasidan e'lon qilingan. Shuningdek 2021-yildan oldin ma'lumotlarga ko'ra Xitoy 2016-yildan 2020-yilgacha 11 million gektarga yaqin yerni cho'llanishdan qutqargan⁶². Milliy o'rmon xo'jaligi va o'tloqlar boshqarmasi(NFGA) Xitoyning ushbu yutug'ini bir nechta omillar bilan izohladi: Markaziy hukumatning moliyaviy ko'magi, olimlarning ko'p yillik tadqiqotlari, xalqaro hamkorlik va boshqalar.

Endi Isroil tajribasini qo'llash va uning qay darajada yaxshi samara bergenini òrganishga harakat qilamiz. Isroil davlati cho'llanishga qarshi ishlab chiqqan usul bu tomchilab sug'orish usulidir. Ushbu usulda o'simliklar tomchilab sug'orish orqali butun dalaning barcha qismiga suv berilmaydi aksincha faqatgina har bir o'simlik ildiziga suv tomchilash orqali yuboriladi.Bundan asosiy maqsad suvni tejashdir Ya'ni ilgari ekin maydoning

⁶¹ <https://ourworld.unu.edu/en/chinas-fight-against-desertification-should-not-be-done-at-the-cost-of-water-security>

⁶² <https://ourworld.unu.edu/en/chinas-fight-against-desertification-should-not-be-done-at-the-cost-of-water-security>

barcha qismiga suv kirgan(o'simlik o'sgan va o'smagan hududlarida ham). Ushbu usul maxsus rezina quvurlar orqali amalga oshirilganligi sababli ushbu quvurlari ekinlar qatori orasiga joylashtiriladi va faqat o'simliklarning o'ziga suv yetkaziladi. Maydonning quvurlar joylashgan qismiga sarflanadigan suv esa tejaladi. Ushbu usul Isroilda birinchi marta Supplant firmasi tomonidan qo'llanilgan. Ushbu firma cho'llanishga qarshi kurashish uchun Hindiston va Sahroyi Kabirdan Janubiy afrika hududlarigacha e'tiborini qaratgan bo'lib, ushbu hududlardagi fermerlarga mo'ljallangan amaliy dasturlash platformasini ham yolda qo'ygan hisoblanadi. Shuningdek, ushbu firma kelajakda ham ijtimoiy-iqtisodiy va geografic sohada ilg'or texnologiyalarni olib kelishni maqsad qilib qo'ygan. Ushbu firma direktori Lior Namaan bir intervusida ushbu usul orqali sug'orishda 50 foizga yaqin mablag'ni tejashta muvaffaq bo'lganliklarini aytib o'tgan⁶³.

Bundan kelib chiqadiki cho'llanishga qarshi Isroiil tajribasi o'z samarasini ko'ssatgan va hozirda O'zbekistonda ham ushbu usuldan keng foydalaniylmoqda. Xo'sh, cho'llanish va qurg'oqchilik haqida dunyo olimlari va tadqiqotchilar qanday fikrda?

Quyida ulardan ayrimlari bilan bo'lishamiz. "Sahrolanish sodir bo'lganda, odamlar och qoladilar va o'z yerlarini tashlab ketishadi hamda yashash uchun boshqa joylarni topishga majbur bo'lishmoqda", deydi AQSHdagi tuproqshunos Jeff Xerrik⁶⁴.

Qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xizmati va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha konvensiyasi (UNCCD)dagи AQSh vakili esa "Biz hammamiz odamlarga o'z yerlarida qolishlariga yordam berish orqali ularga yerni yaxshiroq boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etamiz"⁶⁵. deb aytib o'tgan .Yuqoridaagi ikkala olim ham cho'llanish sababli aholi o'z yashash hududini tashlab ketayotganligidan xavotirda. Darhaqiqat, cho'llanish sodir bo'layotgan hududlarda yashovchi aholini boshqa hududlarga ketishiga yo'l qo'yib bermasdan , balki osha aholining o'zini ishchi kuchi sifatida jalb qilib cho'llanishga qarshi kurashish kerak.

Yana bir olim Kolorado Boulder universitetining ekologiya va evolyutsion biologiya professori va UNCCD Science Policy Interface guruhi hamraisi Nikol Barger: "Yerimizning salomatligi va farovonligi har doim ham bizning diqqat markazimizda emas", deydi⁶⁶. "Biz hamjamiyat sifatida bu muammoni hal qilishda butun dunyoni qo'llab-quvvatlashimiz lozim" deya ta'kidlagan.

⁶³ [https://www.israeltoday.co.il/read/combatting-desertification-and-drought-the-israeli-](https://www.israeltoday.co.il/read/combatting-desertification-and-drought-the-israeli)

⁶⁴ <https://www.israeltoday.co.il/read/combatting-desertification-and-drought-the-israeli->

⁶⁵ <https://nocamels.com/2022/06/drought-desertification-israel-innovation-agriculture/>

⁶⁶ <https://share.america.gov/u-s-scientists-work-to-stave-off-desertification/>

Bargerning aytishicha, sahrolanishga qarshi kurashda odamlar juda katta yordam berishi mumkin. "Yerga bosim asosan biz undan qanday va qancha foydalanishimizga bog'liq. Shunday qilib, individual darajada, har bir inson yerdan unumli zararli yetkazmay foydalanish orgali oz bo'lsada cho'llanishning oldini olish mumkin.^{67"}

Cho'llanishga qarshi bir qancha hujjatlar qabul qilingan .Shulardan eng asosiysi BMT ning cho'llanishga qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiya hisoblanadi. Ushbu konventsiya 1994-yil 17-iyunda qabul qilingan va BMT ga a'zo barcha davlatlar tomonidan imzolangan. O'zbekiston ushbu konvensiyani 1994 yil 7-dekabrda imzolagan va 1995-yil Oliy Majlis tomonidan ushbu konventsiya ratifikatsiya qilingan⁶⁸. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining cho'llanishga qarshi, asosan, Orol dengizi atroflarini cho'llanishdan qutqarishga bag'ishlangan bir qancha ichki qonunchilik hujjatlari mavjud. Masalan , O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHO'LLANISH VA QURG'OQCHILIKKA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDAgI O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori mavjud bo'lib, ushbu qarorda Konvensiyaning umumiyligini mazmuniga tayanib qo'shimcha, ichki normalar ham belgilab qøyilgan⁶⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak cho'llanishga qarshi bugungi kunda butun dunyo birgalikda kurashmoqda. Amma cho'llanish butunlay tugashi uchun harakatni to'xtatmaslik va eng muhimi unga sabab bo'luvchi omillarni kamaytirish va tugatishga erishish lozim.Cho'llanishning oqibatlarini bartaraf qilish uchun insoniyat bor kuch va imkoniyatini safarbar qilishi lozim. Yuqorida ko'rib turganimizdek, qurg'oqchilik va ekinzorlarning cho'llanishga yuz tutayotganligiga dunyoning yetuk olimlari , injenerlari, mutaxassislari global muammo sifatida qarab uni yechish uchun turli xil yechimlar qidirishmoqda. Ushbu yechimlar o'z natijasini sekinlik bilan ko'rsatib, yaqin kelajakda cho'llanish tufayli yetkazilgan zararlar bartaraf etilib, muammo to'liq hal qilinishi lozim.

REFERENCE:

- ❖ <https://uzbekistan.un.org/uz/131947-ozbekistonda-butunjahon-chollanish-va-shorlanishga-qarshi-kurash-kuni-nishonlandi>
- ❖ <https://share.america.gov/u-s-scientists-work-to-stave-off-desertification/>

⁶⁷ <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0140196397902937>

⁶⁸ <https://lex.uz/docs/-4211813>

⁶⁹ <https://lex.uz/docs/-4211813>

- ❖ <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0140196397902937>
- ❖ https://www.israeltoday.co.il/read/combating-desertification-and-drought-the-israeli-experience/?gclid=CjwKCAiA9qKbBhAzEiwAS4yeDd2bddQF8jrq09iR09Fs6G_nh2rc_qz8AQOyL58YorZaf9dljwDbpxoCQiQQAvD_BwE
- ❖ <https://nocamels.com/2022/06/drought-desertification-israel-innovation-agriculture/>
- ❖ <http://www.forestry.gov.cn/main/6124/20220622/145534609990945.html>
- ❖ <https://ourworld.unu.edu/en/chinas-fight-against-desertification-should-not-be-done-at-the-cost-of-water-security>
- ❖ <https://lex.uz/docs/-4211813>